

Akademik kengash majlisining bayoni (1-son bayonnoma) qisqacha mazmuni

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Akademik kengashining majlisi Birinchi prorektor A. Umarov raisligida, kengash a'zolari, dekanlar va tarkibiy bo'linma rahbarlari ishtirokida o'tkazildi. Yig'ilishda boshqaruv, akademik rejalashtirish, ta'lim sifati, raqamli transformatsiya, KPI tizimi va doktorantura masalalari ko'rib chiqildi.

Akademik kengashning yangi tarkibi va ish rejasi tasdiqlanishi

Akademik kengashning yangilangan tarkibi va yillik ish rejasi taqdim etildi va tasdiqlandi. Qaror qilindi:

1. Akademik kengashning yangi tarkibi tasdiqlansin;
2. Kengashning yillik ish rejasi faoliyat uchun asos sifatida tasdiqlansin;
3. Mas'ul bo'linmalar tomonidan materiallar o'z vaqtida taqdim etilishi ta'minlansin;
4. Zaruratga ko'ra yil davomida ish rejaga o'zgartirishlar kiritishga ruxsat etilsin.

2025/2026 o'quv yiliga tayyorgarlik va akademik hujjatlar

Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik, jumladan o'quv rejalari, akademik kalendar, kreditlar taqsimoti va guruhlar shakllantirilishi bo'yicha hisobotlar taqdim etildi. Qaror qilindi:

1. Universitetning yangilangan akademik nizomi tasdiqlansin;
2. 2025/2026 o'quv yili uchun o'quv rejalari va akademik kalendar tasdiqlansin;
3. Ilmiy darajaga ega bo'lmagan tajribali mutaxassislar va amaliyotchilarga ma'ruza o'qishga ruxsat berilsin;
4. Yangi ishga qabul qilingan professor-o'qituvchilar uchun 30% ustama belgilansin;
5. Qaror ijrosi Birinchi prorektor nazoratiga yuklatilsin.

Universitet faoliyatini xalqaro miqyosda rivojlantirish

Xalqaro hamkorlik natijalari va istiqbolli rejalar ko'rib chiqildi. Qaror qilindi:

1. Xalqaro faoliyat bo'yicha choraklik hisobot tizimi kuchaytirilsin;
2. Xorijga chiqish va akademik mobillik tartiblariga rioya etilishi ta'minlansin;

3. Sukuba va Glasgow universitetlari bilan qo'shma dasturlar yakuniga yetkazilsin;
4. Xorijiy talabalar va mehmon o'qituvchilar ulushi oshirilsin;
5. 2026/2027 yilga borib xorijiy professor-o'qituvchilar ulushi 10% ga yetkazilsin.

Amaliyot natijalari

3-kurs talabalarining malakaviy amaliyoti natijalari ko'rib chiqildi. Qaror qilindi:

1. Amaliyot natijalari ma'lumot uchun tasdiqlansin;
2. Tashqi tashkilotlar bilan hamkorlik kengaytirilsin;
3. Amaliyot monitoringi Moodle tizimiga integratsiya qilinsin;
4. Baholash mezonlari ishlab chiqilsin;
5. Fakultetlar va martaba markazlari o'rtasidagi muvofiqlashtirish kuchaytirilsin.

Davlat stipendiyalari nomzodlari

Prezident va nomli davlat stipendiyalari nomzodlari ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. Qaror qilindi:

1. Tanlangan talabalar stipendiyalarga nomzod sifatida ko'rsatilsin;
2. Hujjatlar "stipendiya.edu.uz" tizimiga yuborilsin;
3. Nomzodlar monitoringi ta'minlansin.

Ilmiy loyiha

Inson resurslari siyosati va davlat boshqaruvi samaradorligini baholash bo'yicha ilmiy loyiha taqdim etildi. Qaror qilindi:

1. Loyiha Innovatsion rivojlanish agentligiga taqdim etilsin;
2. Universitet darajasida amalga oshirilishi nazorat qilinsin.

Mustaqil izlanuvchilar mavzulari

Mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya mavzulari ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. Qaror qilindi:

1. Barcha mavzular tasdiqlansin;
2. Rasmiy ilmiy byulletenlarda e'lon qilinsin;
3. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim bo'limi orqali rasmiylashtirilsin.